

**Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasining  
mudiri, p.f.b.f.d (PhD), dotsent N.N.Narziyevaning “Maxsus fanlarni o‘qitish  
metodikasi” fanidan “Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida axborot  
texnologiyalaridan foydalanish” mavzusidagi ochiq seminar mashg‘uloti  
ishlanmasiga**

**TAQRIZ**

Seminar mashg‘ulot matni uslubiy tomondan to‘g‘ri taqsimot qilingan. Yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan. Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari berilgan. Seminar mashg‘ulotini o‘qitish bo‘yicha pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Seminar mashg‘ulotining texnologik xaritasida o‘quv mashg‘ulotining vaqti chegaralari belgilangan. Taqdimotda “Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish” mavzusi batafsil yoritilgan bo‘lib, talabalar “Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish”ni dars jarayonida taqdimotlarda ko‘rib o‘rganadilar. Axborot texnologiyalari bo‘yicha bir qancha rangli rasmlar berilgan bo‘lib, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati, u orqali ta‘limni rivojlantirish yo‘llari aniq yoritilgan. Test savollari, nazorat savollari, vazifa va aqliy hujum savollari berilgan. Taqdimotda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati berilgan va barcha talablarga javob beradi.

N.N.Narziyevaning “Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish” mavzusidagi ma‘ruza mashg‘ulotining taqdimoti hozirgi zamon ta‘lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman.

Barcha ta‘lim mutaxassisliklari talabalari uchun tayyorlangan dars ishlanmasi namunaviy dastur asosida yoritilgan.

Umuman olganda, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent N.N.Narziyeva tomonidan yozilgan ushbu dars ishlanmasi o‘zining mantiqiy nihoyasiga yetgan va uni keng miqyosda ta‘lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

**Buxoro muhandislik-texnologiya  
instituti, pedagogika, psixologiya  
fani o‘qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD)**



**Z.D.Hasanova**

**Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasining  
mudiri, p.f.b.f.d (PhD), dotsent N.N.Narziyevaning “Maxsus fanlarni o‘qitish  
metodikasi” fanidan “Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida axborot  
texnologiyalaridan foydalanish” mavzusidagi ochiq seminar  
mashg‘uloti ishlanmasiga**

**TAQRIZ**

Seminar mashg‘uloti mavzusi fan dasturi va fanning ishchi dasturiga to‘liq mos keladi. Seminar mashg‘ulot matni pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda, uslubiy tomondan to‘g‘ri ishlab chiqilgan. Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, seminar mashg‘ulotini o‘qitishda foydalanilgan pedagogik texnologiyalar berilgan va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Seminar mashg‘ulotining texnologik xaritasida esa o‘quv mashg‘ulotining olib borish jarayoni ko‘rsatilgan.

Taqdimotda talabalar maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalarining ahamiyati, pedagogning maxsus fanlarni o‘qitishda darsni tayyorlash va o‘tkazishdagi pedagogik mahorati, ma‘ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kabi muhim masalalarni ko‘rib o‘rganadilar. Bundan tashqari, taqdimotda test savollari, nazorat savollari, va aqliy hujum savollari, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

N.N.Narziyevaning “Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish” mavzusidagi ma‘ruza mashg‘ulotining taqdimoti hozirgi zamon ta‘lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**Toshkent Xalqaro Kimyo texnologiyalar  
universiteti Samarqand filiali Pedagogika  
psixologiya kafedrasini mudiri**



**p.f.b.f.d.(PhD) O‘.Zubaydullayev**